



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buguk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 25-sentabr, № 197 (8820)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## ZAMON TALABLARIGA MOS TA'LIM TIZIMI YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 24-sentyabr kuni kasbiy ta'limni rivojlantirish va milliy malaka tizimini isloh qilishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda shu yil 5-fevral kuni ijtimoiy sohalarda bo'yicha bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida vazifa qo'yilgan edi. O'tgan vaqt mobaynida tizimning samaradorligi tanqidiy o'rganilib, qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda professional ta'lim tizimi uch turdagi muassasalar: 333 ta kasb-hunar maktabi, 227 ta texnikum va 112 ta kollejdin iborat. Ular tabaqalashganligi va dasturlari o'rtasida uzviylik bo'lmaganligi sababli mavjud quvvatlaridan unumli foydalanilmayapti.

Shu bois mazkur 3 turdagi muassasalar negizida texnikumlar tarmog'ini rivojlantirish taklif etilmoqda. Unga ko'ra 600 ta texnikum tashkil etiladi. Maqbullashtirish natijasida bo'shaydigan 71 ta muassasa binosi maktablarga aylantirilib, 42 mingta o'quvchi o'rnini yaratiladi.

Bundan tashqari, ilgari kollejlarda turli vazirlik va idoralarga qarashli edi. Endi bu tizimda boshqaruv, tashkiliy va metodik jihatdan yagona davlat siyosati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan yuritiladi.

Zamon talablariga tez moslashishi uchun texnikumlarining akademik mustaqilligini kengaytirish mo'ljallanmoqda. O'qish muddatlari va davomiyligi kasb murakkabligi va o'quvchining ta'lim darajasiga qarab belgilanishi ko'zda tutilmoqda.

Texnikumlarda ta'lim sifati va jozibadorligini oshirish maqsadida xalqaro ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi. Dastlab, tajriba tariqasida 14 ta texnikumda Angliyaning "BTEC" dasturi joriy etiladi. Bitiruvchilarga 70 ta davlatdan olinadigan diplom beriladi hamda 200 dan ortiq xorijiy universitetlarga kirish imkonini yaratiladi. Natijaga qarab bu tajriba

bosqichma-bosqich boshqa texnikumlarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Qabul jarayonini ish beruvchilar talabi asosida shakllantirish ham muhim. Shu maqsadda elektron platforma yaratilib, unga barcha vazirlik va tarmoqlar ulanadi. Texnikumlarining ta'lim dasturlari sanoat tarmoqlari, tadbirkorlar birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so'ng amaliyotga kiritiladi.

Taqdimotda Milliy malaka tizimini isloh qilish masalalari ham ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda bu borada muayyan ishlar qilindi. Lekin vazifalar undan-da ko'p. Mingdan ziyod ishchi kasblarning standartlari ishlab chiqilmagan. Ayrim kasblar bo'yicha kvalifikatsiyalar xalqaro talablarga mos kelmaydi.

Shu bois endi Kasbiy malaka va bilimlarni

rivojlantirish respublika kengashiga Bosh vazir raislik qiladi. Uning tarkibida 24 ta yangi tarmoq kengashlari tuziladi.

Shuningdek, Ta'lim sohasidagi loyihalar ofisi huzurida Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti faoliyati yo'lga qo'yiladi. Institut rivojlangan davlatlar tajribasi asosida Milliy malaka ramkasini yangi tahrirda qabul qiladi. Lavozim va kasblar klassifikatori qayta ko'rib chiqiladi, 100 ga yaqin zamonaviy kasblar kiritilib, hozir amaliyotda bo'lmaganlari chiqarib tashlanadi.

Davlatimiz rahbari texnikumlarni jihozlar va ish qurollari bilan ta'minlash, zamon talablariga mos ishchi-mutaxassislar tayyorlash, buning uchun amaliyotga keng o'rin berish yuzasidan o'z fikrlarini bildirdi.

O'z.A.

## O'zbek shaxmati tarixida yana bir yorqin sahifa

Vengriyaning Budapesht shahrida 11-sentyabrdan 22-sentyabrga qadar bo'lib o'tgan 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida umumjamo'a hisobida bronza, shuningdek, taxtalar kesimida 1 ta oltin, 2 ta kumush medalni qo'lga kiritgan O'zbekiston shaxmat terma jamoasi a'zolari Islom Karimov nomidagi "Toshkent" xalqaro aeroportida tantanali kutib olindi.



### IFTIXOR

Bilamizki, so'nggi yillarda yurtimiz sporti tarixida yangi sahifalar zarhal harflar bilan yozilmoqda, ular orasida, ayniqsa, O'zbekiston shaxmatining yetishib chiqqan "oltin avlodi" musobaqalarda katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil Hindistonning Chennai shahrida bo'lib o'tgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida vakillarimiz oltin medallarni qo'lga kiritib, butun dunyoni lol qoldirgan edi. Yaqinda paralimpiyachilarimiz Parij shahrida bo'lib o'tgan XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza medalni qo'lga kiritib, yurtimiz sha'nini yuksakka ko'tardi. Bu natijalardan ko'p o'tmay shaxmatchilarimiz ushbu an'anani davom ettirdi. 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida

vakillarimiz Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilib, jahon arenalarida yurtimiz obro'-e'tibori va nufuzini oshirishda o'z hissasini qo'shdi.

Vengriya poytaxtida qariyb 200 mamlakatdan mahoratlil shaxmatchilar ishtirok etgan musobaqada O'zbekiston erkaklar terma jamoasi a'zolari olimpiadaning bronza medaliga sazovor bo'ldi. Vakillarimiz keskin va murosasiz musobaqada yuksak aql-zakovat, mustahkam iroda va matonat fazilatlarini namoyon qilib Xitoy, Serbiya, Armaniston, Germaniya, Ozarbayjon, Sloveniya, Ispaniya kabi davlatlarning jamoalarini ortda qoldirdi. Champion Hindiston terma jamoasi esa vakillarimizdan umumiy reytingda ustun bo'lishiga qaramay shaxmat taxtasida tengma-teng dona surib, jangovar durang qayd etdi.



## Hamkorlikni kengaytirish tashabbusi ilgari surildi

Avval xabar berilganidek, joriy yil 18 - 20-sentyabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida IV Yevroosiyo xotin-qizlar forumi bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston delegatsiyasi ham ishtirok etdi.

### Anjuman

Mazkur nufuzli anjuman doirasida tashkil qilingan "Uzoq umr ko'rish tibbiyoti tendensiyalari" mavzuidagi majlisda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Manzura Salimova ma'ruza bilan qatnashdi.

Senator o'z chiqishida O'zbekistonda aholi sog'lig'ini saqlash, onalar va bolalar salomatligi muhofazasiga qaratilayotgan e'tibor hamda bu borada ko'rilayotgan izchil chora-tadbirlar va shu sa'y-harakatlar natijasi xususida atroflicha ma'lumot berdi.

Shuningdek, mamlakatimizda bolalar va xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish borasidagi ishlar ham batafsil keltirib o'tildi.

Majlisda reproduktiv salomatlik va bolalar salomatligini muhofaza qilish sohasida yuqori texnologiyalarni joriy etish, yordamchi reproduktiv texnologiyalar, molekulyar genetika, prenatal skrining noinvaziv usullari markazlarini tashkil etish bo'yicha hamkorlikni kengaytirish tashabbusi ham ilgari surildi.

"Xalq so'zi".

### NUQTAI NAZAR

## Germaniya — Markaziy Osiyoning muhim va ishonchli sherigi

Mamlakatimiz o'zaro manfaatli, ochiq va konstruktiv tashqi siyosati tufayli jahon hamjamiyati e'tiborini o'ziga tortdi. O'zbekistonga nisbatan ishonch va hurmat oshdi. Dunyo siyosiy va iqtisodiy aloqalar tizimida mamlakatimizning mavqeiini oshirish, xalqaro munosabatlarning to'laqonli subyekti sifatida o'rni va rolini mustahkamlash, ijobiy imijini shakllantirish hamda O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik "kamari"ni yaratish siyosati o'z mevalarini berayotganiga bugun hammamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Sayyoramizda ziddiyatlar, qurolli mojarolar, ta'sir doirasini oshirishga qaratilgan o'yinlar kuchaygan bir pallada Markaziy Osiyoning, shu jumladan, O'zbekistonning mintaqalarni o'zaro bog'lovchilik ahamiyati oshib bormoqda. Ayni shu omil jahon hamjamiyatining mintaqaga qiziqishi kuchayishining asosiy sabablaridan biridir.

Markaziy Osiyoning dunyoda ahamiyati va roli oshib borayotganini mintaqada hamda yirik

davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning turli formatlari tashkil qilinayotganida ham ko'rishimiz mumkin. Mavjud "Markaziy Osiyo — AQSH", "Markaziy Osiyo — Koreya Respublikasi", "Markaziy Osiyo — Yaponiya", "Markaziy Osiyo — Hindiston", "Markaziy Osiyo — Xitoy", "Markaziy Osiyo — Rossiya" muloqot formatlari qatorida "Markaziy Osiyo — Germaniya" formatini ham alohida ta'kidlash joiz.



### SAYLOV — 2024

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar bo'yicha saylov kampaniyasi doirasida siyosiy partiyalarning saylovoldi tashviqoti davom etmoqda. Bugungi sonda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi nomidan "Qudratli davlatga tayangan, qonunlari Milliy va umuminsoniy qadriyatlariga uyg'un, inson qadri baland, farovon jamiyat qurish — bosh maqsadimiz!" sarlavhali maqola e'lon qilinmoqda.

3-sahifaga qarang.

## «RAQAMLI ASRDA HAQIQATNI IZLAB: DEZINFORMATSIYAGA QARSHI KURASHISH»

Kecha poytaxtimizda ayni shu mavzuda birinchi O'zbekiston — Ozarbayjon mediaforumining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

### Mediaforum

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar hamda Ozarbayjon Respublikasi Mediani rivojlantirish agentliklari hamkorligida tashkil etilgan ushbu tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi Sh. Asadov, Ozarbayjon Respublikasi Mediani rivojlantirish agentligi ijrochi direktori A. Ismailov, Oliy Majlis Cenatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator M. Parpiyev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi NNT va kommunikatsiya bilan ishlash shu'ba rahbari K. Gasanov, Ozarbayjon Respublikasining mamlakatimizdagi elchisi G. Guliyev ishtirok etib, ushbu forum va ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati, axborot asrida dezinformatsiyaga qarshi kurashishning zamonga xos tadbirlari, qonunchilikda ushbu masalalarning aks etishi yuzasidan batafsil so'z yuritdi.

Aytilganidek, O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlarining axborot siyosati sohasida vakolatli organ sifatida AOKA va Ozarbayjon Mediani rivojlantirish agentligi mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy mavqega ta'sir ko'rsatuvchi dezinformatsiyaga qarshi kurashda sa'y-harakatlarni birlashtirishi o'ta muhim hisoblanadi. Mazkur forum ikki davlatning axborot hamda media sohasida amalga oshirayotgan qator dasturlari ko'lamlari kengaytirishda ayni muddadidir.

Forum uchta sessiyadan tashkil topgan bo'lib, birinchi sessiyada "Dezinformatsiyaga qarshi kurashda eng yaxshi xalqaro amaliyotlar" mavzuida o'zbekistonlik va ozarbayjonlik axborot sohasi mutasaddilari hamda OAV rahbariyati o'z mamlakatlari tajribasi asosida ma'ruza qildi. "O'zbekiston va Ozarbayjonda aholi mediasavodxonligini oshirishda davlat hamda nodavlat mediatashkilotlarining roli" mavzuidagi ikkinchi sessiyada bu borada amalga oshirilayotgan loyihalar, mediadasturlar, qo'shma "yo'l xaritalari" hamda chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berildi.

Uchinchi sessiya O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida ommaviy axborot vositalari sohasida hamkorlikni mustahkamlashga bag'ishlangan bo'lib, unda bugungi kunga qadar sheriklikni kengaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar va kelgusida rejalashtirilayotgan sa'y-harakatlar xususida taklif hamda tashabbuslar, fikr-mulohazalar bildirildi.

"Xalq so'zi".

### DAVRA SUHBATI

## Suv xo'jaligining 2030-yilgacha bo'lgan gender konsepsiyasi ishlab chiqiladi

Kecha mamlakatimiz Suv xo'jaligi vazirligida Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi moliyaviy ko'magida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi"ning 3-bosqichi doirasida O'zbekiston suv xo'jaligining 2030-yilgacha bo'lgan gender konsepsiyasini ishlab chiqishga bag'ishlangan davra suhbati o'tkazildi.

Unda soha mutaxassislari, aloqador vazirlik va idoralar hamda nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, gender masalalari bo'yicha ekspertlar, shuningdek, O'zbekiston suv xo'jaligining gender konsepsiyasini ishlab chiqishga mas'ul idoralarda ishchi guruh a'zolari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida gender tenglikni ta'minlash mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.



OLY MAJLIS SENATIDA



Migratsiya strategiyasi loyihasi kun tartibida

Kecha Oliy Majlis Senati huzurida tashkil etilgan ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Qayd etilganidek, senatorlar, vazirlik va idoralar vakillari, olimlar hamda mutaxassislardan iborat tarkibda tuzilgan ishchi guruhning asosiy vazifasi O'zbekistonning migratsiya strategiyasi loyihasini tayyorlashdan iborat. Yig'ilishda ishchi guruh a'zolari oxirgi bir necha oy davomida migratsiya yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlar hamda tadqiqotlar natijasida to'plangan ma'lumotlar, taklif va tavsiyalarni umumlashtirib, atroficha muhokama qildi. Yakunda migratsiya strategiyasining dastlabki loyihasi shakllantirildi hamda uni xalqaro standartlar va migratsiya bo'yicha global shartnoma maqsadlariga muvofiqlashtirishga kelishib olindi.

Ma'muriy tartib-taomillar va eskirgan mexanizmlar bartaraf etiladi

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalarini qo'mitasi majlisida ikkita qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi. Tadbirda qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida gi qonun normativ hujjatlardagi ortiqcha ma'muriy tartib-taomillar va eskirgan tartibga solish mexanizmlarini bartaraf etishga qaratilgan. Unga ko'ra amaldagi bir qator qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilmoqda. Jumladan, "Davlat mulkini xususiy lashtirish to'g'risida"gi Qonunga kichik, yoshlar va tadbirkorlik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiy lashtirish O'zbekiston Respublikasining alohida qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritilyapti. Senatorlar alohida ta'kidlaganidek, ushbu qonun eskirgan tartibga solish mexanizmlarini bartaraf etishi barobarida, amaldagi bir qator normalarni qonunchilikka muvofiq lashtirishga xizmat qilishi bilan diqqatga sazovor. Majlisda, shuningdek, "Davlat boji to'g'risida"gi

BOLALARNI HIMOYA QILISHNING QONUNYI POYDEVORI MUSTAHKAMLANSANA...

Yurtimizda bolalar va ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularni o'ladagi tazyiq va to'g'ri ravonlikdan himoya qilishning huquqi asoslarini tubdan takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lami chora-tadbirlar ko'rilmogda. Muhimi, oxirgi yillarda bu borada salmoqli natijalarga erishildi. Bu nafaqat yurtidoshlarimiz, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etib kelinmogda.

Senatda ma'qullangan

Bu xususda so'z ketganda, birinchi bo'lib, yangi O'zbekistonda jinoyat uchun jazo muqarrarlari prinsipi ta'minlanayotganligini ta'kidlash zarur. Misol uchun, qonunchilikimizga "oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlik" tushunchasi kiritilib, bunday huquqbuzarliklar uchun tegishli ravishda ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilandi. Himoya orderi talablarini buzganlik uchun esa Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda Jinoyat kodekslariga oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi normalar kiritildi. Voyaga yetmaganlarga jinsiy to'g'ri ravonlik qilgan shaxslarning bolalarga ta'lim-tarbiya berishi, bolalar bilan besavot ishlashi, shu kabi faoliyat turlari bilan shug'ullanishi taqiqlandi. Ammo bunday sa'y-harakatlarga qaramay bugungi kunda huquqni

qo'llash amaliyotida bolalarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq qator muammolar mavjudligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Masalan, oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlikka nafaqat voyaga yetganlar, balki bolalar ham duchor bo'layotganligini ijtimoiy tarmoqlar orqali ko'rib-bilib turibmiz. Bunga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va Jinoyat kodekslari tegishli moddalarida oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlikning qurboni er-xotin, sobiq er-xotin, bir to'g'ri rasida birgalikda yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi mumkinligi nazarda tutilgan holda bolalar kiritilmagan sabab bo'lmogda. Kuni kecha o'tkazilgan Oliy Majlis Senatining galdagi yalpi majlisida ma'qullangan "Oilaviy (maishiy)



to'g'ri ravonlikdan himoya qilish choralarini kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida gi qonun shu kabi muammoli masalalarni hal etishga qaratilgan bilan e'tiborlidir. Mazkur qonun bilan bolalarni himoya qilishning huquqi asosi zamon talabidan kelib chiqib mustahkamlanmogda. Birinchi muhim jihat. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 592-moddasi va Jinoyat kodeksining 1261-moddasi bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlik uchun javobgarlik bilan to'ldirilmogda. Bu modda bilan bolalarni himoya qilishning huquqi asosi mustahkamlanmogda. Ya'ni bolaga, shuningdek, vasiylik yoxud homiylik

ostida bo'lgan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan oilaviy to'g'ri ravonlik uchun javobgarlik belgilab qo'yilayotir. Ikkinchi muhim jihat. Jinoyat-protsessual kodeksiga oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlik bilan bog'liq yangi norma kiritilmogda. Ya'ni oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlik bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan yarashuv to'g'risidagi ariza faqat ishni sudda ko'rish jarayonida, sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkinligi belgilanmogda. Tahlillar shuni ko'rsatayaptiki, tergov bosqichida er-xotinlarning o'zaro yarashganligi oqibatida ayblanuvchi tomon jazo muqarrarlirini his qilmay, bir yil davomida yana qayta to'g'ri ravonlik sodir etishi holatlari kuzatilmogda. Hozirgi globalizatsiya jarayonida to'g'ri ravonlikning bu turi na geografik, na ijtimoiy yoki iqtisodiy chegaralarni bilmasligi ayon bo'ldi. Rivojlanayotgan yoki rivojlangan mamlakatlarda ham bu muammoga barham berish jihatidagi choralar ko'rishni talab qiladi. Deylik, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotiga ko'ra dunyo bo'yicha xotin-qizlarning 35 foizi, ya'ni har uchinchisi ayol to'g'ri ravonlikka duch kelmogda. Bu esa ushbu muammo jahondagi hech bir davlatni chetlab

o'tmaydi deganidir. Shunga yarasha ko'pgina davlatlarda bu muammoni bartaraf etish yo'nalishida o'ziga xos tajriba to'plangan. E'tibor qiling, bunda eng asosiy tamoyil davlat va nodavlat tuzilmalarining jamoatchilik bilan doimiy aloqada bo'lishidan iborat. Negaki, to'g'ri ravonlik har qanday jinoyat kabi ogohlik va shaffoflikdan "qo'rqadi", to'g'ri ravonning xatti-harakatlari jamiyat tomonidan qoralanishi esa uni to'xtatishning eng samarali yo'lidir. O'zbekiston ham turli mutasaddi tuzilmalar va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilikning bu yo'nalishdagi hamkorlikni mustahkamlash borasidagi xalqaro tajribadan foydalanib kelayotganligini aytish zarur. Bu, ayniqsa, tegishli yo'nalishda qabul qilinayotgan me'oroy-huquqiy hujjatlar ustida ishlashda yaqqol namoyon bo'lmogda. So'z yuritilayotgan qonun buning tasdiqidir. Muhimi, ushbu qonun istiqbolda oilaviy (maishiy) to'g'ri ravonlik bilan bog'liq jinoyat ishlarning har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqilishiga, tazyiq va to'g'ri ravonlik sodir etgan shaxsning xulqiga ko'rsatiladigan ijobiy ta'sirning kuchi yanada ortishiga va oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhit yaxshilanishiga xizmat qiladi. Malika QODIRXONOVA, Oliy Majlis Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi raisi.

OLY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASIDA

Taqiqlangan qurollar yoki usullar bilan ov qilganlik uchun javobgarlik kuchaytirilmogda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida hayvonot va o'simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan qonun loyihasi ishlab chiqilib, quyil palataga kiritildi. Qonun loyihasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmogda. Ya'ni taqiqlangan qurollar

yoki usullar, xususan, elektr toki, portlovchi va kimyoviy moddalar hamda biologik preparatlarni qo'llagan holda ov qilish va baliq ovlaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanmogda. Bunday tashqari, kimyoviy, biologik va bakteriologik vositalardan foydalangan holda, shuningdek, binolar, inshootlar yoki boshqa

Banklar sanatsiyasi: huquqiy asos va imkoniyatlar

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan "Banklarni sanatsiya qilish va tugatish to'g'risida"gi qonun loyihasi dastlabki tarzda ko'rib chiqildi. Banklarni sanatsiya qilish tizimi to'lovga qobiliyatsiz banklarning iqtisodiyot va bank tizimiga salbiy ta'sirini kamaytirish, shuningdek, ularning iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan vazifalari va xizmatlari uzluksizligini ta'minlash, omonatdchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya etish hamda mijozlarning bank tizimiga ishonchini oshirish imkonini beradi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan ushbu qonun loyihasida banklarni sanatsiya qilish maqsadlari va prinsiplari, sanatsiya bo'yicha vakolatli davlat organi, sanatsiyada foydalaniladigan vositalar, sanatsiyani moliyalashtirish

o'rganish, kelib chiqqan inqirozlarni boshqarish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida idoralararo muvofiq lashtiruvchi maslahat organi - Moliyaviy barqarorlik kengashi faoliyatiga doir qoidalar belgilanmogda. Qonun loyihasi siyosiy partiyalarning fraksiyalari yig'ilishi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilmogda. "Xalq so'zi".

Shaharsozlik:

YANADA SAMARALI VA SHAFFOF

Bugungi kunda shaharsozlik tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan sohalaridan sanaladi. Shu bois hududlarda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari natijasida shaharlar va ularning atroflarida barpo etilayotgan obyektlarning shaharsozlik norma va qoidalariga mos kelishini ta'minlash, ushbu sohada davlat boshqaruvining asosiy talablaridan biri deyish mumkin.

Fikr

So'nggi yillarda yurtimizda qurilish tizimini isloh qilish borasida qator tadbirlar ro'yogba chiqarilib, bu boradagi davlat boshqaruvi tizimi tubdan takomillashtirildi. Natijada investitsiyalarni jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratilib, mamlakatimiz qurilish sohasida yangi davr boshlandi.



Avvalo, sohaning huquqi va moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, yurtimizning barcha hududida ilg'or texnologiya va yondashuvlar asosida faoliyat yuritadigan yangi-yangi qurilish tashkilotlari paydo bo'ldi. Bosh reja va shaharsozlik hujjatlari loyihalari yangicha mezonlar asosida yaratish maqsadida boshlangan sa'y-harakatlar ham o'z samarasini bermogda.

Shu bilan birga, shaharlar va ular atroflarining bosh rejalarini eskirgan, bosh rejalarini ishlab chiqish ko'p vaqt talab etishi, investitsiya loyihalari amalga oshirishni to'xtatib turish imkoniyati yo'qligi sababli shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish talab qilinmogda. Qolaversa, shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqishning yangi tizimlarini tartibga solish maqsadida Shaharsozlik kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritish zarurati paydo bo'ldi.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 10-sentyabr kuni imzolangan "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishga xizmat qilishi bilan e'tiborga molik.

Binobarin, mazkur qonun bilan Shaharsozlik kodeksiga Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining nomini, vakolatlarini aniqlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududlarini rivojlantirishni rejalashtirish tarhlari kabi shaharsozlik hujjatlari turlari hissa qo'shgan bo'lamiz. Bu esa pirovardida qulay va xavfsiz atrof-muhit yaratilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, bosh tarhni va hududiy tarhlarni tasdiqlash hamda muntazam ravishda takomillashtirib borish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar, O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh

tarhida aholini va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tizimini davlat tomonidan tartibga solish asoslari belgilandi. Shaharsozlik sohasida vakolatli davlat organi - Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi shaharlarning bosh rejalarini soddallashtirilgan shaklda ishlab chiqishda buyurtmachiga va loyiha tashkilotlariga loyihalash topshirig'ini berish vakolatiga ega bo'ldi. Bu, o'z navbatida, uning shaharsozlik siyosatini muvofiq lashtirishdagi rolini kuchaytiradi hamda shaharlar va aholi punktlarini rivojlantirishni samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Mazkur hujjatda O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhida aholini va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tizimini davlat tomonidan tartibga solish asoslari belgilandi. Hududlarning joriy holati, salohiyatini aniqlash, o'zaro bog'liqlik maqsadlarini va xususiyatini, arxitektura, shaharsozlik va qurilish faoliyatini amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi maqsadida boshlangan sa'y-harakatlar ham o'z samarasini bermogda.

Aytilish mumkinki, ushbu hujjat bilan arxitektura, shaharsozlik va qurilish faoliyatini amalga oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari doirasida hududlararo va tarmoqlararo davlat manfaatlarini muvofiq lashtirish va aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini loyihalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlantirishni rejalashtirish bosh tarhidagi loyihaviy yechimlar mamlakatimiz Taraqqiyot strategiyasi, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy integratsiya jarayonlari, qo'shni davlatlarning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot dasturlari hamda jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda uzoq davrga mo'ljallab ishlab chiqilishi o'rin olgani muhim yangiliklardan biri bo'ldi.

Umuman olganda, mazkur qonun fuqarolar uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sharoitni saqlagan holda shaharlar va aholi punktlarining barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlaydi. Eng muhimi, O'zbekistonda yanada samarali va shaffof shaharsozlik tizimini yaratish hamda har bir fuqaro munosib hayot kechirishi va xavfsiz kelajakka ega bo'lishi mumkin bo'lgan zamonaviy hududlarni barpo etishga xizmat qiladi.

Farhod ZAYNIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi raisi o'rinsosari.

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH — PIROVARD MAQSAD

Bugungi global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari sharoitida ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil maydonlarni ko'paytirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Munosabat

Yurtimizda so'nggi yillarda ushbu sohani boshqarish va tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yanada takomillashtirildi. Sohaga oid ko'plab qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmogda. Natijada ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardir. Davlatimiz rahbarining ayni maqsadga qaratilgan qator Farmon va qarorlari, tashabbuslari shu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmogda. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan har bir shaxsning ekologik huquqlari kafolatlandi. Prezidentimiz shu yil 19-sentyabr kuni atrof-muhitni muhofaza qilish va turizm sohalaridagi takliflar taqdimoti bilan tanishish chog'ida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, ekologik holatni yaxshilash bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Avvalo, mamlakatda samarali ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida tayyorlangan ikkita dastur taqdimot etildi. Xususan, dastlab ekologik muammolar yechimining ustuvorligini hisobga olgan holda chang bo'ronlarga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo'yicha 2024 - 2030-yillarga mo'ljallangan milliy dastur loyihasi ko'rib chiqildi. Mazkur hujjatda barcha sohada iqlim o'zgarishiga bog'liq xavflarga moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha alohida

chora-tadbirlar ishlab chiqilishi global iqlim o'zgarishi salbiy oqibatlarining samarali oldini olish imkonini berishi ta'kidlab o'tildi. Zero, unda avtomobilsozlikda "Yevro - 4" standartidan past toifadagi yonilg'ini sotish va undan foydalanishni bosqichma-bosqich to'liq taqiqlash nazarda tutilmogda. Buning uchun Buxoro va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari yuqori sifatli yonilg'i ishlab chiqarish bo'yicha modernizatsiya qilinishi rejalashtirilmogda. Bugun an'anaga aylanib borayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi atrof-muhit muhofazasi barqarorligini ta'minlashda nafaqat milliy, balki mintaqqa manfaatlari yo'lida ham xizmat qilayotgani ayini haqiqat. Ushbu loyihaning ahamiyatidan kelib chiqqan holda Toshkent shahrida atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilmogda. Unga ko'ra kelgusi besh yilda poytaxtimiz va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarida 441 gektar "yashil belbog" va bog'lar tashkil etiladi. Ma'lumki, har qanday davlat taraqqiyoti, o'z navbatida, chiqindilar hosil bo'lishiga olib keladi. Biroq ularni samarali boshqarish mamlakatning ham ekologik, ham iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Shu sababli sanitar tozalash ishlarini tartibga solish maqsadida mavjud markaz negizida Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligini tuzish taklif etildi. Bunda sanitar tozalash



korxonalarining samaradorlik ko'rsatkichlariga qarab uchta toifaga ajratgan holda reyting tizimi joriy qilinishi rejalashtirilmogda. Bugun O'zbekistonda uy-joy qurilish ishleri industriya darajasiga olib chiqilmogda. Bu esa ularga nisbatan yangi ekologik talablarni joriy etishni taqozo qiladi. Ushbu talablardan kelib chiqib yangi quriladigan, balandligi 12 metr dan yuqori umumiy maydoni 500 kvadrat metr dan ortiq bo'lgan binolarni loyihalashtirishda unga tutash hududlarning kamida 25 foizini ko'kalmozlashtirish talabi qo'yilmogda. Shuningdek, atrof-muhitga zarari ko'p sanoat korxonalarini "yashil belbog"lar barpo etish majburiyatini oladi. Yana bir muhim jihat. Demokratik qadriyatlar tobora rivojlanib borayotgan yurtimizda ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga katta e'tibor qaratilmogda. Bu borada faol va jonkuyar insonlarni rag'batlantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan ekolog" faxriy unvoni ta'sis etilishi soha vakillariga bo'lgan yuksak e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin ifodasi, deb o'ylaymiz. Aytilish joizki, O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida 10 dan ortiq sohalariga oid xalqaro hujjatlarni

ratifikatsiya etgan. Taqdimot davomida atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning axborot olish imkoniyati, ishtiroki va odil sudlovga erishish imkoniyati to'g'risidagi Orxus konvensiyasiga qo'shilish masalasi ko'rib chiqildi. Shuningdek, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza etish talabiga rioya qilmaslik bo'yicha modda kiritish maqsadga muvofiqiligi aytiladi. Daraxtlarni kesish va qasddan quritish, daryo o'zamlaridan noqonuniy qum-shag'al qazib olish, chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlash uchun jarimalarni oshirish va qat'iy lashtirish choralar ko'riladi. Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda aholi tomonidan yovvoyi yirtqich hayvonlar tartibsiz parvarish qilinayotgani, ular esa fuqarolar hayoti va sog'lig'iga xavf solayotgani keng muhokamaga sabab bo'layotir. Ushbu hayvonlarni xonadonlarda boqish huquqi jihatdan tartibga solinmagan. Endilikda yovvoyi hayvonlarni uy sharoitida, sirk va shapitolarda saqlash hamda tomoshalarda foydalanish taqiqlanishi ayini muddao bo'ldi. Umuman, taqdimot davomida belgilab berilgan dolzarb vazifalar ijrosini ta'minlash har bir rahbar, ayniqsa, biz, deputatlardan ham katta mas'uliyat talab etadi. Agar ushbu vazifalarni birlashtirib, astoydil amalga oshirsak, ekologiya barqarorligini ta'minlashga katta hissa qo'shgan bo'lamiz. Bu esa pirovardida qulay va xavfsiz atrof-muhit yaratilishiga xizmat qiladi. Islom XUSHVAQTOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

# QUDRATLI DAVLATGA TAYANGAN, QONUNLARI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA UYG'UN, INSON QADRI BALAND, FAROVON JAMIYAT QURISH – BOSH MAQSADIMIZ!



## “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, avvalo, xalqimiz manfaatlarini, partiya g'oya va maqsadlaridan kelib chiqib, shuningdek, vatanparvar nomzodlar va xalqchil dastur saylovda g'alaba qozonishning asosiy mezonini ekanligini chuqur anglagan holda o'zining 2025 – 2029-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturini ishlab chiqdi va saylovchilarga e'tiboriga havola etdi. Yangi O'zbekiston ishlohtari mazmuniga hamohang bo'lgan mazkur hujjat partiyaning navbatdagi qadamlari uchun **strategik dastur vazifasini o'taydi.**

### TA'LIM VA TARBIIYA – MILLIY TARAQQIYOT POYDEVORI

Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim tizimini ham zamonaviy talablarga asosida rivojlantirish imkonini berayпти.

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025 – 2029-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida eng ustuvor vazifa sifatida sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni zamon talablariga javob beradigan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish va nazorat qilish belgilangan edi.

Xususan, dasturda “Ta'lim va tarbiya – milliy taraqqiyot poydevori” shiori ostida yosh avlod hayoti va kamoli, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimizni, avvalo, maktabgacha ta'lim bosqichidanoq ularning aqli-iroki va zehni o'stirish, maktabgacha va maktab ta'limi bilan bog'liq bo'lgan eng ustuvor mezonlar, dolzarb masala va muammolar, ularning yechimi qamrab olingan.

Statistik ma'lumotlar maktabgacha va maktab ta'limi tizimida so'ngi olti yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27 foizdan 70 foizga yetganini, ya'ni 2 millionga yaqin bolalar bog'chaga borayotganini ko'rsatmoqda. Maktablar soni ham keyingi 5 yilda 660 taga ko'paydi va 2023/2024 o'quv yili boshidan faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 10 750 tadan oshdi. Jumladan, yurtimizda 14 ta Prezident maktabi, 9 ta ijod maktabi va 182 ta ixtisoslashtirilgan maktab faoliyat yuritmoqda.

Biz o'tgan yillardagi tajriba va hayot talabidan kelib chiqib, milliy tarbiya asoslari va milliy ta'lim dasturlarini rivojlantirish, uzluksiz tarbiya va ta'lim uyg'unligining huquqiy asoslarini kafolatlash choralarini ko'rish uchun Yangi avlod tarbiyachisi va pedagoglarini tayyorlash davlat dasturini qabul qilish, shuningdek, pedagogikaga layoqati bor maktab bitiruvchilarini saralash va davlat buyurtmasi asosida o'qishni tashkil etish, uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularning yoshiga mos milliy videomahsulotlar kontentini yaratish, tarbiyachi va o'qituvchilarni ishga qabul qilish va faoliyati jarayonida ularning oldingi ish faoliyatini o'rganish, psixologik testlardan o'tkazish tartibini joriy etish hamda o'quvchilarning sifatli ta'lim olishlari uchun malakali pedagog kadrlarni saralab olish maqsadida maktablarda pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilishning shaffof tizimini joriy etish lozim, deb hisoblaymiz.

Navbatdagi yo'nalish esa bu oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim hamda professional ta'lim hisoblanadi. Agar 2017-yili oliy ta'lim muassasalari soni 77 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib davlat OTMlari soni 114 ta, xorijiy OTM filiallari 29 ta va nodavlat OTMlari soni 67 tani tashkil etmoqda. Bu ayni paytda 210 ta oliy ta'lim muassasasi talabalar xizmatida degandir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida milliy ilmiy kadrlarni tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish, byurokratik talablarni bekor qilish, Oliy attestatsiya komissiyasini isloh etish, o'zbek tilidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish, har yili xorijiy tildagi mingta ilmiy adabiyotni davlat tiliga tarjima qilishni muhim deb hisoblaymiz.

### MA'NAVIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASH, MADANIYAT SOHASINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQUISH CHORALARINI KO'RAMIZ

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, garchi istiqbolli g'oya va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlasa-da, biroq milliylik, urf-

odat, an'ana va qadriyatlar masalasida konservativ g'oyalar tarafdori bo'lib qolaveradi. Shu bois partiya yangi Saylovoldi dasturida “Qadriyatlariga tayangan taraqqiyot” shiori ostida milliy qadriyatlarini saqlash va taraqqiyotni ta'minlash maqsadida milliy madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish, qadriyatlarini saqlash va boyitishga alohida e'tibor qaratish bilan birga, madaniy meros muhofazasi, undan foydalanish, tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratishni asosiy vazifa sifatida belgilab oldi. Shuningdek, partiya o'zbek tilining nufuzi va obro'sini saqlash yuzasidan davlat tili maqomini oshirish, keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratadi.

Ushbu yo'nalish doirasida partiya madaniy merosimizni asrab-avaylash, undan ehtiyoqkorona foydalanish va kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratgan holda, madaniy meros obyektlarini ijaraga berish tizimini tartibga solish tashabbusini ilgari surmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 8210 ta moddiy madaniy meros ko'chmas milliy obyekti sifatida davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ularni saqlash borasida muammolar mavjud.

Aynan shu sababli, partiyamiz madaniy meros obyektlarini ijaraga berish tizimini tartibga solish tarafdori bo'lib maydonga chiqmoqda. Bu tashabbus orqali madaniy yodgorliklardan tijorat maqsadlarida foydalanish tartibini belgilashga, ularni milliy boylik sifatida butunligicha saqlab qolishga harakat qilayotganliklarini ko'rsatadi.

Shuningdek, partiya har qanday sharoitda milliy manfaatlarini muhosasiz himoya qilish, jamiyatni yot madaniyatlar hisobiga emas, balki urf-odat, an'ana va qadriyatlariga asoslanib rivojlantirish maqsadida o'z Saylovoldi dasturining ma'naviy yuksalish va madaniyatni rivojlantirish yo'nalishida “Davlat tili haqida”gi qonunchilikni

Qobiliyat o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo'lmasa, boladagi qobiliyat ham so'nadi”, deya ta'kidlaydi. Bu bilan aytish kerakki, partiya milliy qadriyatlarimizni asrlar osha mustahkamlab, yangi avlodga meros qilib qoldirish tarafdoridir.

Asrlar osha xalqimizda ayol zotiga hurmat va e'tibor – eng oliy qadriyatlardan sanalgan. Xalqimiz orasida “Ayol bir qo'li bilan beshikni, ikkinchi bilan dunyoni tebratadi”, degan naql bor.

Biz jamiyatning barcha jabhasida ayollarning ijtimoiy va siyosiy faolligini



yanada oshirishni qo'llab-quvvatlaymiz. Bu borada mehnat jamoalarida gender tengligini ta'minlashga oid ta'limni rivojlantirish, moslashuvchan ish vaqtini joriy qilish, ayollarning oilada ko'proq bo'lishlari uchun sharoitlar yaratish va talaba onalar farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalari huzurida maxsus bolalar xonalari yoki bog'chalar tashkil etish kabi tashabbuslarni ilgari suraymiz.

Shu o'rinda partiyamizning nikohdan ajralishlar oqibatida uy-joyisiz qolgan ayollar va ularning farzandlari manfaatlarini



buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi.

### OILANI MUSTAHKAMLAYMIZ, AYOLLAR VA YOSHLARGA MUNOSIB SHAROITLAR YARATAMIZ

Biz uchun “Oila – muqaddas qo'rg'on!”. Onalik, otalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi, ayollar va erkaklar teng huquqli, deb e'tirof etilishi, ularga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda hamda barcha sohada teng huquq va imkoniyatlar berilishi partiyamizning ustuvor maqsadlariga uyg'un.

Shundan kelib chiqib, partiya oila sha'ni va shavkati himoyachisi – erkaklarning oiladan, bola tarbiyasidan uzoqlashishining oldini olish, “O'talar kuni” – ijtimoiy-siyosiy kun sifatida bayram qilinishini joriy etishni taklif qilmoqda.

Darhaqiqat, bu borada buyuk alloma Sa'diy Sheroziy “Oilada asosiy tayanch otadir. U mas'uliyatli tarbiyachidir. Ota o'z bolalarini tarbiyalashi, o'qitishi, hunarga o'rgatishi, jismonan chinqitirishi kerak.

himoya qilish tashabbusi davr talabiga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu taklif va tashabbuslar bugungi yangi gender siyosati borasidagi islohotlar natijasida fuqarolik jamiyati negizlari ham yangicha tizimda shakllanishiga xizmat qilishga ishonamiz. Bu jarayonlarda ayollarning roli alohida bo'lib, ularni doimo qo'llab-quvvatlash nafaqat davlatning, balki har bir partiyamiz insoniylik burchi, deb hisoblaymiz.

Bugungi yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar vatanparvarlik, insonparvarlik hamda bag'rikenglik kabi xislatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Partiya shularni inobatga olib, “Yosh millatparvarlar” shiori ostida yoshlarning birlashishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiya topishi, qalbid shu yurt farzandi ekanligi hamda xalqimizning buyuk tarixi va boy madaniy merosidan faxrlanish tuyg'usini izchil shakllantirish tarafdoridir.

himoya qilish tashabbusi davr talabiga aylandi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bu taklif va tashabbuslar bugungi yangi gender siyosati borasidagi islohotlar natijasida fuqarolik jamiyati negizlari ham yangicha tizimda shakllanishiga xizmat qilishga ishonamiz. Bu jarayonlarda ayollarning roli alohida bo'lib, ularni doimo qo'llab-quvvatlash nafaqat davlatning, balki har bir partiyamiz insoniylik burchi, deb hisoblaymiz.

Bugungi yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar vatanparvarlik, insonparvarlik hamda bag'rikenglik kabi xislatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Partiya shularni inobatga olib, “Yosh millatparvarlar” shiori ostida yoshlarning birlashishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiya topishi, qalbid shu yurt farzandi ekanligi hamda xalqimizning buyuk tarixi va boy madaniy merosidan faxrlanish tuyg'usini izchil shakllantirish tarafdoridir.

### MILLIY IQTISODIYOT VA TURIZMNI RIVOJLANTIRAMIZ

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi o'z g'oya va maqsadlaridan kelib chiqib, milliy qadriyat va an'analarni asrash, til,

ta'lim va tarbiya masalalari qanchalik muhim bo'lsa, milliy iqtisodiyot va uning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan turizmni rivojlantirish ham asosiy maqsadlarimizdan biri, deb hisoblaydi.

Shundan kelib chiqib, qadriyatlariga asoslangan bozor iqtisodiyoti asoslarini mustahkamlash, milliy iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlarini shakllantirish, xususiy mulk daxlsizligi, erkin va halol raqobat munosabatlarini so'zsiz ta'minlash, zamonaviy, adolati pensiya va tibbiy sug'urta tizimlarini yaratish singari tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda mahalliy ishlabarmonlar va tuzilmalar manfaatini oqilona himoya qilish, bozor munosabatlari sharoitida “Saxovatli tadbirkor” va “Halol mansabdor” mezonlari asosida fuqarolarni rag'batlantirish va ularni keng jamoatchilikka tanishtirish orqali jamiyatni qadriyatlar atrofida birlashtirish kabi partiya dasturidagi vazifalarni milliy iqtisodiyot va turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida baholash mumkin. Partiya Saylovoldi dasturida ko'tarilgan ushbu tashabbuslar esa yaqin kelajakda O'zbekistonning “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoridan o'rin olishiga erishishga o'zining munosib hissasini qo'shad.

Bu yo'nalishlarda eng muhim iste'mol tovarlarining bozor narxlarini barqarorligini



ta'minlash, kitob ishlab chiqarish va kitob sotuvida qo'llaniladigan qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlar joriy etish, soliqlar tizimini soddalashtirish, qazib olinadigan yoqilg'ilarga bosqichma-bosqich bog'liqlikni kamaytirish, “yashil” energiyaga o'tishni rag'batlantirish va milliy valyutaning qadriyatini oshirish, milliy sug'urta tizimini keng jalb qilish kabi aniq taklif va tashabbuslarni bildirayotganligi ushbu partiyamizning milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirish kabi g'oyalari bilan ham saylovchilarga jiddiy kirib kelayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, turizmni rivojlantirish ham partiyamizning asosiy tashabbuslaridan bo'lib, u birinchi o'ringa milliy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy obidalarni saqlash, milliy madaniyatni keng targ'ib qilish kabi maqsadlarimizga mos kelsa, ikkinchidan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Shundan kelib chiqib, partiya turizm sohasini umummilliy harakatga aylantirish, “ochiq eshiklar” siyosatini yuritish, vizasiz kirish tizimini kengaytirish, “Turizm assambleyasi” kollegial-konsultativ kengashi faoliyatini tashkil etish hamda turizmni kompleks rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan strategiyani ishlab chiqish tashabbuslarini ilgari surayпти.

### MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA TAYANGAN JAMIYAT BARPO ETAMIZ

Davlat boshqaruvi va jamoatchilikda qonuniylikning ustuvorligi bu milliy taraqqiyotimiz kafolati, aslida. Shundan kelib chiqib, partiya qonun ustuvorligi davlat boshqaruvining asosiy tamoyili bo'lishi lozim, deb hisoblaydi. Bunda, ayniqsa, qonun oldida barchaning tengligi, davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ustidan jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlari ishlab chiqarishni ta'minlash eng muhim jihattir. Shu bilan birga, sud tizimida advokat va prokurorning teng huquqliligi adolati sud jarayonlarini ta'minlashga imkon beradi. Natijada davlatning huquqiy tizimi fuqarolar uchun tayanchga aylanadi.

Partiya rahbarlarining jamiyat va xalq oldidagi hisobdorligini doimiy tarzda oshirib borish lozim, deb hisoblaydi. Bu tamoyil rahbarlarning xalqqa yaqinroq bo'lishiga, ularning ehtiyoqlarini to'g'ri tushunib, hal etishga ko'maklashadi. Shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot



qilish, ularning fikr-mulohazalarini eshitish va muammolarni birgalikda hal etish davlat boshqaruvining samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv rahbarlarning mas'uliyatini kuchaytirib, ularni o'z harakatlari bilan xalq manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishga undaydi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Buni keyingi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma'muriy islohotlar misolida ham ko'rish mumkin.

Bu jarayonlarni izchil davom ettirish uchun “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida “Davlat xizmatidagi halollik tekshiruvi” institutini joriy etish, davlat xizmatdoshlari sonini muntazam kamaytirib borish taklifi ilgari surilayпти. Ushbu takliflar davlat xizmatini to'g'ri tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi, albatta. Shuningdek, ushbu takliflar amalga oshsa, davlat xizmatidagi professionalizm va axloqni yanada mustahkamlash imkonini yaratiladi.

“Milliy tiklanish” parlament va siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratadi. Davlat boshqaruvida parlamentning rolini kuchaytirish, qonun ijrosini nazorat qilish, davlat organlari faoliyatini shaffofligiga erishish mamlakatning barqaror va adolati rivojlanishini ta'minlaydi. Bunda asosiy maqsad – hukumat faoliyatini ustidan samarali parlament nazoratini amalga oshirish va har bir qonunning hayotga to'g'ri tatbiq etilishini kafolatlashdir.

Oilani mustahkamlash, uning jamiyat asosiy bo'g'ini sifatidagi ahamiyatini oshirish ham diqqat markazimizdagi masaladir. Shu munosabat bilan partiya dasturida oilaviy nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha sudyalarni ixtisoslashtirish ishlarini davom ettirish, yarashiruv institutining qo'llanish doirasini tomonlar roziligi bilan kengaytirib borish, oila, meros, uyjoy da'vosi va turmushdagi boshqa nizolarni hal etishda qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda murosa yo'lini izlash, ishlarni sudgacha olib bormaslik kabi vazifalar belgilangan.

### XAVFSIZLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH – USTUVOR VAZIFAMIZ

Partiyamizning Saylovoldi dasturida xavfsizlik va aholi muhofazasini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Sababi, barcha sohada milliy manfaatlar ustuvorligini ta'minlash partiyamizning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu bilan birga, aholing huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, migratsiya va milliy ma'naviy

O'ylaymizki, yuqoridagi partiyamiz tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatimiz taraqqiyotiga yangi ilhomlantiruvchi kuch bo'lib qo'shiladi. “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi 2025 – 2029-yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida xalqimiz va Vatanimiz manfaatiga xizmat qiluvchi taklif va tashabbuslar hayotiylikni ta'minlashda Siz, aziz saylovchilarning qo'llab-quvvatlashingizga tayanadi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar bo'lib o'tadigan saylovlarda partiyamizga va partiyamizdan ko'rsatilgan nomzodlarga bergan ovozingiz Sizing bizga ishonchingizdir! “Qadriyatlariga tayangan taraqqiyot!” g'oyasi atrofida birlashib, mamlakatimiz taraqqiyotini birgalikda ta'minlaymiz!

Nodirbek TILAVOLDIYEV,  
Feruz MAMMADJANOVA,  
“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi  
o'rinbosarlari.

## “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

# O'zbek shaxmati tarixida yana bir yorqin sahifa



...24-sentyabr Toshkent xalqaro aeroportida g'oliblarni tantanali qutlash uchun davlat hamda jamoat tashkilotlari vakillari, yosh sportchilar, shaxmatchilarning ota-onalari, yaqinlari, ommaviy axborot vositalari xodimlari yig'ildi. Karnay-surnay sadolari ostida sovrindor sportchilarning maxsus to'shalgan qizil yo'lakda olqishlar bilan kutib olindi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan Prezident Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov yig'ilganlarga davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning shaxmat bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zolariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. Sportchilarning yuz-ko'zida esa quvonch, mamlakatimiz dovrig'ini yana bir bor dunyoga taratib, o'zlarining g'oliblik ruhini ona Vatanga tortiq etayotganidan behad mamnun ekanini bildirdi.

Birinchi navbatda Prezidentimizga minnatdorlik bildiraman, shaxsan ularning tashabbusi bilan olimpiadaga tayyorlanishimiz uchun yuksak darajadagi shart-sharoitlar yaratildi, - deydi O'zbekiston shaxmat terma jamoasi a'zosi Nodirbek Abdusattorov. - Budapeshtdagi shaxmat olimpiadasida yaxshi natija qayd etib, qatorasiga ikkinchi marta sovrindorga aylandik. Musobaqaga ikki yil oldingi natijamizni takrorlash uchun borgandek. Asosiy raqibimiz Hindiston terma jamoasini 2022-yil o'z uyida bo'lib o'tgan Olimpiadada yutqandik. Afsuski, bu gal biroz o'z o'rnini yo'qotib, keyingi Butunjahon shaxmat olimpiadasiga yurtimiz mezbonlik qiladi. Unda ham yuksak maqsadlarni reja qilyapmiz, albatta, raqiblarimizni mag'lub etib yana bir bor olimpiada chempionligi uchun kurashamiz.

Kuy-qo'shiqlarga, xursandchiligi shodiyonalarga ulanib ketgan marosimda

shaxmatchilarning erkaklar terma jamoasiga 45-Butunjahon shaxmat olimpiadasida bronza medaliga ega chiqqani uchun "BYD Chazor" avtomobillari hamda 170 mln. so'm pul mukofotlari taqdim etildi.

Vatanimiz sharafini himoya qilganimdan xursandman, - deydi O'zbekiston shaxmat terma jamoasi a'zosi Nodira Nodirjonova. - Musobaqaga puxta tayyorgarlik ko'rgan edik va ayollar terma jamoamiz avvalgi Butunjahon shaxmat olimpiadasidagi natijani yangiladi. Turnirda bor kuchimizni ishga soldi, mana ko'rib turganingizdek, taxtalar kesimida shaxsan o'zim kumush medal sovrindori bo'ldim. Albatta, bu g'alabalarimiz jonajon xalqimizning qo'llab-quvvatlovi hamda biz, yoshlar uchun amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi, deb bilaman. Kelgusida bundan-da katta marralarga erishib, ishonchini oqlaymiz degan umiddaman.

Darhaqiqat, qizlar terma jamoasi Budapeshtda bo'lib o'tgan bahslarda 170 mamlakatning mahoratlari shaxmatchilari orasida 12-o'rinni egallab, o'tgan galgi Butunjahon shaxmat olimpiadasidagi natijasini 19 pog'onaga yaxshilab, tarixiy natijani qo'lga kiritdi.

Ta'kidlash joizki, olimpiadaning uzoq vaqt oraliqidagi musosab beshashuvlarida Nodirbek Abdusattorov, Shamsiddin Vohidov hamda Jahohir Sindorovning g'alabaga teng durangga erishgan vaziyatlar xalqaro sharhlovchilar, ekspertlar tomonidan e'tirof etildi. Albatta, bu natijalar ortida mashaqqatli mehnat yotibdi.

Bularning barchasi g'alabalarimiz boshlanishi, kelgusi musobaqalarda sportchilarning bundan-da yuksak marralarni qo'lga kiritib, Vatanimiz bayrog'ini ko'kka ko'tarishiga tilakdoshmiz.

Elyor HAYDAROV ("Xalq so'zi").

Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

# Suv xo'jaligining 2030-yilgacha bo'lgan gender konsepsiyasi ishlab chiqiladi

Ushbu hujjatda respublikamizda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish bilan bog'liq qator vazifalar belgilab berilgan. Bu boradagi masalalar ijrosi agrar soha, xususan, suv xo'jaligi tizimida ham muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda O'zbekiston suv xo'jaligining 2030-yilgacha bo'lgan gender konsepsiyasini ishlab chiqishga kirishildi.

Mazkur tashabbus O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan suv xo'jaligini gender baholash natijalariga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, hujjatda sohada gender tenglikka erishish, erkaklar va ayollarning teng huquqlari va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish, xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning manfaatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqish rejalashtirilmoqda.

Davra suhbatida xalqaro tajribani hisobga olgan holda

O'zbekiston suv xo'jaligida gender tengligining hozirgi holatini baholash, suv resurslarini integrallashgan boshqarish tamoyillariga asoslangan suv xo'jaligining gender konsepsiyasini ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari muhokama qilindi.

Yakunda 2030-yilgacha suv xo'jaligining gender konsepsiyasini ishlab chiqish bo'yicha asosiy yondashuvlar, manfaatdor tomonlar bilan birgalikda aniq qadamlar va kelgusidagi harakatlar belgilab olindi.

"Xalq so'zi".

# GERMANIYA – MARKAZIY OSIYONING MUHIM VA ISHONCHLI SHERIGI

Mazkur holat rivojlangan aksar davlatlarning mintqa mamlakatlari bilan nafaqat ikki, balki yagona mintaqaviy ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga ahamiyat qaratayotganidan dalolat. Shu bilan birga, mintaqada hamda boshqa davlat va xalqaro institutlar o'rtasida yangi formatlarning tuzilishi, bu – Markaziy Osiyoning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati oshib borishiga, shuningdek, mintaqaga xalqaro munosabatlardagi yaxlit siyosiy-diplomatik subyekt sifatida qaralishiga olib kelmog'ida. "Markaziy Osiyo + " formati xalqaro munosabatlarda chigallashib borayotgan bir davrda o'zaro aloqalar yangi shakllarining siyosiy-diplomatik, tashkiliy-shartnomaviy, ijtimoiy-iqtisodiy formatlarini rivojlantirish ehtiyoji kuchayishiga o'ziga xos javob modeli sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shubhasiz, mintqa davlatlarining barqarorligi va hamjihatligi, avvalo, xalq farovonligiga, ikkinchidan, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirib, sherik davlatlar va investorlar bilan hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo – Germaniya" formatidagi sammitda ishtiroki va ilgari surgan taklif hamda tashabbuslari O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi qudratli davlat bilan munosabatlarini barcha sohada sezilarli darajada mustahkamlashga qaratilgan yana bir imkoniyat bo'ldi, desak, yangilishmaymiz. Sammit kun tartibidan siyosiy muloqotni rivojlantirish, hududlararo hamkorlikni kengaytirish, savdo-iqtisodiy sheriklik va madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish masalalarining o'rini olgani shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

Rasmiy Berlin, birinchi navbatda, iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv, raqamli transformatsiya, "yashil" o'sish, barqaror qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorini samarali rivojlantirish uchun ko'mak berish maqsadida O'zbekistonga har tomonlama madad ko'rsatmoqda. Germaniya Markaziy Osiyoda muvozanatni saqlab turuvchi hamkor sifatida mintaqadagi muammolarni hal etishga ko'mak bera oladi. Qolaversa, iqtisodiyotlarimiz barqarorligini ta'minlashda asqatadigan ko'plab vositalarga ega. Ayni chog'da Germaniyaning mintqa davlatlari bilan hamkorligi xavfsizlik, qonun ustuvorligi, atrof-muhit, suv resurslari, iqlim o'zgarishi, ta'lim, ayollar masalalari, inson huquqlari kabi sohalarini ham o'z ichiga olgani bilan ajralib turadi. Bunda ishbiarmonlik muhitini rivojlantirish, investitsiyalarni rag'batlantirish hamda barqaror aloqani jipslashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qisqasi, Germaniya mintaqamiz mamlakatlari bilan ko'p qirrali sheriklikni kengaytirishdan manfaatdor. "Markaziy Osiyo – Germaniya" birinchi sammitining 2023-yil 29-sentyabr kuni Berlin shahrida o'tkazilgani, mazkur platformani ishga tushirish tashabbusi o'sha yil boshida Federal Kansler Olaf Shols tomonidan ilgari surilgani fikrimizni dalillaydi.

Umuman, O'zbekiston Prezidenti va Markaziy Osiyoning boshqa yetakchilari tomonidan mintaqada yaxshi qo'shnihilik va do'stona munosabat o'rnatish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar tufayli erishilgan iqtisodiy va siyosiy salohiyatni mustahkamlash nuqtayi nazardan rasmiy Berlinning mintaqaga qiziqishi ortib borayotgani bor gap. Germaniyaning O'zbekistonga 9 mlrd. yevro miqdorida sarmoya kiritish borasidagi ahdi ham ko'p narsadan dalolat beradi. Boz ustiga, rasmiy Berlin mamlakatlarimizda olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, Markaziy Osiyodagi hamkorlik va integratsiyani qat'iy qo'llab-quvvatlashini bot-bot takrorlamog'ida. O'zbekiston va mintqa davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli ochiq va samarali muloqotning yo'lga qo'yilgani, chegarara, suv, energetika, savdo, tranzit bilan bog'liq ko'plab muammolar uchunchi davlatlar ishtirokisiz hal qilinayotganini e'tirof etadi. Ammo bu mintaqamizning ertangi

kuni, uning xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muammolar yo'q degani emas. Ularning yechimida Yevropa Ittifoqining mamlakatlarimiz bilan hamkorlik bo'yicha strategiya va ko'p tomonlama dasturlarining asosiy tashabbuskori bo'lgan Germaniyaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu muammolar sirasiga Yevropa va Yaqin Sharqdagi mojarolar hamda urushlar, umuman, global miqyosdagi beqarorlik va vaziyat qaysi tomonga o'zgarishi noaniq bo'lib qolayotgani, sanksiyalar siyosati, proteksionizmning kuchayishi va boshqa ko'plab omillarni kiritish mumkin. Ular ta'bir joiz bo'lsa, mintqa mamlakatlari taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, islohotlarning tezkorligiga jiddiy to'siq bo'lyapti. Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoda Germaniya bilan hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha konseptual va konstruktiv oltita taklifni ilgari surdi.

Birinchi, Markaziy Osiyo va Germaniya o'rtasidagi mintqa barqarorligi, barqaror rivojlanish va farovonlikni ta'minlash bo'yicha umumiy manfaatlarimizga javob beradigan strategik mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini qabul



bo'yicha dasturni ishlab chiqishda Germaniya texnik ko'magini jalb qilish taklif etildi.

To'rtinchi taklif esa "yashil" energetika bilan bog'liq. So'nggi yillarda butun dunyo atmosferaga chiqindilarni kamaytirish maqsadida qayta tiklanuvchi energetikaga o'tishga zo'r beryapti. Masalan, Germaniya ko'mir, gaz va boshqa an'anaviy energetikadan foydalanishni kamaytirib, quyosh, shamol va suv energetikasini faol rivojlantirmog'ida, "yashil" vodorod loyihalari ilgari surmog'ida. Shuning uchun Markaziy Osiyo davlatlarining Germaniya bilan energetika sohasidagi muloqotini yo'lga qo'yish, ushbu mamlakat texnik ko'magini jalb etgan holda kam uglerodli iqtisodiyot sohasida mutaxassislar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks dasturni tayyorlash taklif qilindi.

konferensiyasini o'tkazishni taklif etdi. Bu bejiz emas. Sholsning bu galgi safaridan ko'zlangan maqsad ham yangi bozor va qo'shimcha energiya, uglevodorod manbalarini topish, muqobil transport yo'laklarini rivojlantirishdan iborat.

Ukrainadagi vaziyat sabab Germaniyaning Rossiya bilan oldi-dotdisiga cheklov joriy etilgan. Demak, rasmiy Berlin bu borada yangi imkoniyatlar ochishga harakat qiladi. Qolaversa, Germaniya Yevropa va Markaziy Osiyoni bog'lovchi Transkaspiy xalqaro transport yo'nalishiga qiziqish bildirib, ushbu loyihani qo'llab-quvvatlamog'ida. Bu yo'lak, shuningdek, Xitoyning Tinch okeani sohilidan Yevropaga ega qisqa yo'l bo'lib, u Xitoydan O'rta Osiyo va Qozog'iston hamda Kaspiy dengiz orqali Janubiy Kavkaz mintaqasiga va undan so'ng Yevropaga borib ulanadigan yirik logistika loyihadir. YEI va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqani ushbu yo'lak orqali ta'minlash tomonlarning umumiy manfaatlariga mos keladi.

Ta'lim sohasi vakili sifatida madaniy gumanitar hamkorlik yo'nalishida sammitda ilgari surilgan takliflarga ham to'xtalishni joiz deb bilamiz. Xususan, davlatimiz rahbarining Germaniya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida Madaniy tadbirlar qo'shma rejasini qabul qilish, Germaniyaning yirik shaharlarida Markaziy Osiyo san'ati va kinosi kunlarini o'tkazish, muzeylar hamkorligini yo'lga qo'yish takliflari xalq diplomatiyasi orqali xalqlarimizni yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Ilmiiy-ma'rifiy almashuvlar yo'nalishida platformani ishga tushirish, dual ta'lim sohasidagi hamkorlikni kengaytirish, Gyote instituti va Germaniyaning boshqa tashkilotlarini jalb qilgan holda nemis tili o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi ilg'or xorij tajribasini o'rganib, zamonaviy texnologiyalarni O'zbekistonda joriy etishni maqsad qilgan yoshlar uchun ayni muddao bo'ldi, deyish mumkin.

O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik ko'p yillik tarixga ega. Xususan, germaniyalik olimlar azaldan yurtimiz tarixi, milliy urf-odat va an'analariga katta qiziqish bilan qaragan. O'z navbatida, mamlakatimiz keng jamoatchilikni ham Germaniyaning o'tmishi va zamonaviy rivojlanish yo'li, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'rganishga alohida ahamiyat bergan. Zero, Germaniya ta'lim va kasbga yo'naltirish, ilm va ilmiy tadqiqotlarga keng e'tibor beradigan davlat sifatida tanilgan. Buni Nobel mukofoti sohiblarining 90 dan ziyodi ushbu davlat vakillari ekani ham tasdiqlaydi. Bugungi kunda mamlakatimizning yuzlab talaba-yoshlari, ilmiy tadqiqotchilar Germaniya oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotganini ham shu bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Kansleri Olaf Shols ishtirokida o'chilgan qo'shma boshqaruv kadrlarini tayyorlash maktabi ham hududlarda boshqaruv kadrlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish borasidagi salohiyatini oshirishga ko'maklashadi. Bu esa keyingi yillarda ta'lim va ilfan sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, jumladan, yoshlarning xalqaro me'yorlar asosida bilim olishi uchun yaratilayotgan qulay sharoit, ilmiy tadqiqot loyihalari qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami Germaniyada katta qiziqish uyg'otayotganidan dalolat beradi.

Xulosa o'rinda aytganda, Germaniyaning Markaziy Osiyo bilan ko'p qirrali aloqalaridan, munosabatlarda izchillik, muntazamlik, tomonlar manfaatida uyg'unlik, ya'ni o'zaro mos keladigan asosiy nuqtalar, drayverlarni aniqlash va shu asosda ustuvorlikka ega yo'nalishlar bo'yicha butunlay yangicha hamkorlik yo'lga qo'yilishidan Berlin ham, mintqa davlatlari ham bidek yutadi. Bunda esa Markaziy Osiyo va Germaniya uchun muhim ahamiyatga ega "5+1" ko'rinishidagi platforma mintaqalararo hamkorlikning ustuvor masalalarini muhokama qilish uchun muhim maydon bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Sobitxon TURG'UNOV, Namangan davlat universiteti rektori, professor.

Advertisement for 'Xalq so'zi' newspaper, including contact information, subscription rates, and a QR code.